



Qo'g'irchoq teatr san'atida obraz yaratish texnologiyasi va muammolari

Temirova Sarbina
Islom qizi

Qo'qon davlat universiteti 2- bosqich "Qo'g'irchoq teatr aktyorligi" yo'nalishi magistranti

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada qo'g'irchoq teatrida obraz yaratish jarayonining nazariy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda sahna obrazini shakllantirishning asosiy bosqichlari, aktyorlik mahorati, dramaturgiya, sahna texnikasi hamda badiiy ifoda vositalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy qo'g'irchoq teatrida uchrayotgan muammolar — aktyorlar tayyorgarligi, dramaturgik asarlar yetishmasligi, texnik bazaning sustligi hamda tomoshabin auditoriyasining o'zgarishi kabi masalalar ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar:

qo'g'irchoq teatri, obraz yaratish, aktyorlik mahorati, dramaturgiya, sahna san'ati, estetik tarbiya, sahna ifodasi, teatr pedagogikasi, innovatsion texnologiyalar, interaktiv teatr.

Hozirgi globallashuv davrida san'at insoniyat ma'naviy hayotining ajralmas qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, teatr san'ati o'zining bevosita ta'sir kuchi bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi. Teatr inson ruhiyatiga, uning dunyoqarashiga va estetik didiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qo'g'irchoq teatri esa teatr san'atining o'ziga xos yo'nalishi bo'lib, u asosan bolalar auditoriyasiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu teatr turi bolalar ongiga chuqur kirib borish, ularning tasavvurini kengaytirish va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, qo'g'irchoq teatrida yaratiladigan obrazlar bolalar dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Chunki bola obraz orqali hayotni anglaydi, yaxshilik va yomonlikni farqlashni o'rganadi. Shu sababli obraz yaratish jarayoni teatr san'atining eng muhim va murakkab bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda qo'g'irchoq teatrida obraz yaratish jarayonida qator muammolar mavjud. Ushbu muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish va ularning yechimlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'g'irchoq teatri insoniyat tarixida eng qadimiy san'at turlaridan biri hisoblanadi. Uning ildizlari qadimgi marosimlar, diniy udumlar va xalq tomoshalariga borib taqaladi. Dastlab qo'g'irchoqlar oddiy materiallardan tayyorlanib, xalq orasida ko'ngilochar vosita sifatida ishlatilgan. Vaqt o'tishi bilan qo'g'irchoq teatri rivojlanib, professional sahna san'atiga aylandi. Turli xalqlarda bu san'at turining o'ziga xos

ko‘rinishlari shakllandi. Qo‘g‘irchoq teatri san‘ati qadimiy va boy madaniyatimizning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘zining yorqinligi, maftunkorligi bilan ajralib turadi. Bu san‘at voqelikni qo‘g‘irchoq personajlar orqali o‘ziga xos uslubda ba‘zan jiddiy, ba‘zan hazil, ba‘zan esa kinoyali yo‘llar bilan lo‘nda, ravon va qiziqarli qilib ko‘rsata olish imkoniyatiga ega bo‘lgan, betakror san‘at turlaridan biridir. Taniqli olim San‘atshunoslik fanlari doktori M.Qodirov qo‘g‘irchoq teatr tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlaridan birida: «Osiyo qo‘g‘irchoq teatri bu shunchaki ermak o‘yin emas, balki bir qit‘a xalqlarining falsafasi, dini, adabiyoti, eposi, musiqasi, folklori, tasviriy san‘ati va albatta tillari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim tarixiy badiiy hodisadir» - deb ta‘kidlaydi... Haqiqatdan ham o‘zbek an‘anaviy qo‘g‘irchoq teatri xalq ma‘naviyati va badiiy tafakkurining ajralmas qismidir. Shu bois ham bu san‘at ming yillar osha rivojlanib, o‘zgarib, yangi shakl va yangi qirralar kashf etgan navqiron san‘at sifatida hayotga kirib kelgan. O‘zbekistonda ham qo‘g‘irchoq teatri uzoq tarixga ega bo‘lib, u xalq ertaklari, rivoyatlar va og‘zaki ijod namunalari asosida rivojlangan. Ayniqsa, bolalar tarbiyasida bu san‘at turi muhim rol o‘ynagan. Mustaqillikdan keyin qo‘g‘irchoq teatriga davlat darajasida e‘tibor qaratilib, yangi teatrlar tashkil etildi va mavjudlari rivojlantirildi.

Qo‘g‘irchoq teatri nafaqat san‘at turi, balki muhim tarbiyaviy vosita hisoblanadi. U orqali: bolalarda axloqiy qadriyatlar shakllanadi bu yerda obraz ikki asosiy komponentdan iborat: Qo‘g‘irchoq (tashqi ko‘rinish) Aktyor (ichki mazmun). Ularning uyg‘unligi mukammal obrazni yaratadi.

Ushbu san‘at turi ham boshqa barcha san‘at turlari kabi spektakl yaratish mezonlariga amal qiladi, qonuniyatlariga suyanadi. Soha vakillariga ma‘lumki, repertuar teatrning g‘oyaviy va ifodaviy qiyofasini belgilaydi. Shu sababli rejissorlar zimmasida spektakl uchun munosib pyesa tanlash mas‘uliyati turadi. Ammo, gap shundaki bu jarayonlarning barchasi qo‘g‘irchoq teatr san‘ati tushunchasiga to‘g‘ri keladigan shartlarga tayanishi, mos kelishi kerak. Eng birinchi spetsifik muammo asosan pyesa topish va tanlashdan boshlanadi. Soha imkoniyati va kamchiliklarini har tomonlama yoritishimiz uchun uning yutuq va muammolariga tik qarashni o‘rganishimiz kerak. Xozirdagi katta muammolardan biri, respublikada qo‘g‘irchoq teatrlari ko‘p bo‘lishiga qaramay aynan qo‘g‘irchoq teatrlari uchun maxsus pyesalar yozadigan dramaturglar deyarli yo‘q. Umuman olganda bizda maxsus “dramaturglar maktabi” yo‘q. Yana bir katta muammo rejissyorlarni milliy repertuar yaratishdagi no‘noq faoliyatida. Achinarlisi, qo‘g‘irchoq teatri dramaturgiyasiga katta teatrlarga yoziladigan pyesalarga qaraganda ikkinchi darajali degan munosabatda bo‘lishadi. Natijada, ko‘p sonli qo‘g‘irchoq teatrlari adabiyot jihatidan ham, teatr san‘ati jihatidan e‘tirof etarlik darajadagi ishlarga ega emas. 2005 yilda qo‘g‘irchoq teatr rejissyorligi magistr darajasini olish uchun yozilgan A.Abduxalilovning “Qo‘g‘irchoq teatrida rejissyorlik hususiyatlari” dissertatsiyasida: “Bolalar uchun chiqarilayotgan adabiyotlar sifati qanchalik yaxshi bo‘lsa, qo‘g‘irchoq teatri ham shu talab darajasida bo‘lishi lozim” deb ta‘kidlagan. Lekin bolalar uchun nashr etilayotgan adabiyotlar qo‘g‘irchoq teatri spetsifikasini inobatga olmagan bo‘lsa, ularning “sifati”, “talab darajasi” qo‘g‘irchoq teatri san‘atiga hech bir ta‘sir ko‘rsata olmaydi. Ammo muallifni ham sahnaviy talqinda asar yarat, deb majburlab ham bo‘lmaydi. Yagona yechim bolalar dramaturgiyasini rivojlantirish. Teatrshunos T.I.Yuldashev shunday yozadi:

“o‘qitish va o‘qish jarayonida qo‘g‘irchoq teatri san‘ati sohasi ustozlari va yosh mutaxassislari adabiyotchilar ta‘sirida qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xosligiga putur yetkazadigan xulosalar qilishmoqda”. Balki shuning uchun viloyat qo‘g‘irchoq teatrlari repertuarida faqat mavzusi bo‘yicha “zamonaviy”, “milliy” bo‘lib ko‘ringan sayoz asarlar ko‘payib ketgan va ularning bayonchilik xususiyatlari, “so‘z”i meyoridan oshib ketgani uchun sahnaviy hayoti juda qisqa bo‘lgandir. Lekin, “teatr jamoalari keyingi vaqtlarda, ba‘zi iqtisodiy qiyinchiliklarni ro‘kach qilib, tayyor tarjima asarlarni yoki sahnalashtirilgan asarlarni qayta-qayta sahnaga olib chiqishga” uringan bo‘lsa ham ular umuminsoniy qadriyatlar aks ettirilgan va eng muhimi, qo‘g‘irchoq teatri san‘atining o‘ziga xosligi mavjud bo‘lgan asarlarni sahnalashtirgan. Bularning barchasi umumiy qo‘g‘irchoq teatrlari faoliyati va repertuar siyosati bilan bog‘liq. Shu bilan birga Qashqadaryo viloyat qo‘g‘irchoq teatriga ham ushbu yutuq va kamchiliklar birdek tegishlidir.

Qo‘g‘irchoq teatrida aktyorlik texnikalari ko‘proq barqaror shakllarga, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ijro tajribalariga asoslangan bo‘lib, obraz yaratishda harakatning ramziy ifodasi, ovoz orqali xarakter ochish va qat‘iy sahna qoidalariga amal qilish ustuvor ahamiyat kasb etgan. Bunday teatr shaklida aktyor ijrosi ko‘pincha milliy estetik qarashlar va folklor an‘analari bilan chambarchas bog‘langan. Zamonaviy qo‘g‘irchoq teatri esa ijtimoiy-madaniy jarayonlar, texnologik taraqqiyot va teatr san‘atidagi yangi izlanishlar ta‘sirida tub o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bugungi kunda qo‘g‘irchoq teatri faqat bolalar tomoshasi doirasida emas, balki keng auditoriyaga mo‘ljallangan murakkab badiiy asarlar sahnalashtirilayotgan mustaqil san‘at turi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayonda aktyorlik texnikalari ham sezilarli darajada yangilanib, jismoniy plastika, improvizatsiya, psixologik chuqurlik va texnologik vositalardan foydalanish asosiy ifoda shakllaridan biriga aylanmoqda. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, an‘anaviy va zamonaviy qo‘g‘irchoq teatrida aktyorlik texnikalarining o‘zaro farqlari va o‘xshash jihatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish teatr amaliyotini boyitish, aktyor tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda milliy sahna san‘atining rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada an‘anaviy va zamonaviy qo‘g‘irchoq teatrida qo‘llanilayotgan aktyorlik texnikalarini qiyosiy tahlil qilish, ularning badiiy va estetik imkoniyatlarini ochib berish asosiy maqsad qilib belgilangan. An‘anaviy va zamonaviy qo‘g‘irchoq teatrida aktyorlik texnikalarini qiyosiy tahlil qilishda, avvalo, ularning shakllanish manbalari va badiiy-estetik tamoyillariga e‘tibor qaratish zarur. An‘anaviy qo‘g‘irchoq teatri xalq og‘zaki ijodi, milliy urf-odatlar, marosimlar va tarixiy tajriba asosida rivojlangan bo‘lib, unda aktyorlik texnikalari qat‘iy shakllangan va nisbatan barqaror tizimga ega. Bu yo‘nalishda aktyor harakati ramziy xarakter kasb etadi, ya‘ni qo‘g‘irchoqning har bir ishorasi ma‘lum ma‘noni anglatadi va tomoshabin tomonidan tezda anglab olinadi. An‘anaviy qo‘g‘irchoq teatrida aktyorning asosiy vazifasi obrazni soddalashtirilgan, ammo aniq ifoda vositalari orqali ochib berishdan iborat. Oyoq-qo‘l harakatlari, boshning egilishi, tananing burilishi kabi jismoniy harakatlar qat‘iy me‘yorlar asosida amalga oshiriladi. Ovoz texnikasi ham an‘anaviy teatrdan muhim o‘rin tutib, aktyor ko‘pincha stereotip ovoz temblari orqali ijobiy va salbiy obrazlarni farqlaydi. Bu holat tomoshabinning, ayniqsa, bolalar auditoriyasining obrazni tez qabul qilishiga xizmat qiladi. Zamonaviy qo‘g‘irchoq teatrida esa aktyorlik texnikalari ancha

erkin va ko'p qatlamli xarakterga ega. Bu yo'nalishda aktyor nafaqat qo'g'irchoqni boshqaruvchi, balki sahnadagi faol ijodkor shaxs sifatida maydonga chiqadi. Ko'plab zamonaviy spektakllarda aktyorning o'zi ham sahnada ko'rinib, qo'g'irchoq bilan birgalikda obraz yaratadi. Natijada aktyorlik texnikalari dramatik teatr, plastika, pantomima va hatto raqs elementlari bilan boyitiladi.

Xulosa qilib aytganda, qo'g'irchoq teatrida obraz yaratish murakkab, ko'p bosqichli va ijodiy jarayon bo'lib, u aktyorlik mahorati, dramaturgik asos, sahna texnikasi hamda badiiy ifoda vositalarining uzviy uyg'unligini talab etadi. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qo'g'irchoq teatrida yaratiladigan obrazlar ayniqsa bolalar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ularning estetik didi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy tasavvurlarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillar davomida aniqlanishicha, bugungi kunda qo'g'irchoq teatrida bir qator dolzarb muammolar mavjud. Jumladan, maxsus tayyorlangan aktyorlar yetishmasligi, dramaturgik asarlarning kamligi, sahna texnik vositalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda tomoshabin auditoriyasining o'zgarishi ushbu sohaning rivojlanishiga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda. Ayniqsa, bolalar dramaturgiyasining yetarli darajada rivojlanmagani qo'g'irchoq teatr repertuarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy qo'g'irchoq teatrida kuzatilayotgan ijobiy o'zgarishlar ham alohida e'tiborga loyiqdir. Xususan, multimedia texnologiyalarining joriy etilishi, interaktiv spektakllarning yaratilishi, aktyorlik texnikalarining yangilanishi ushbu san'at turining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Zamonaviy sahna talablari asosida qo'g'irchoq teatrida obraz yaratish jarayoni yanada boyib, yangi ifoda vositalari bilan to'ldirilmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi: qo'g'irchoq teatr aktyorlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, bolalar dramaturgiyasini rivojlantirish, zamonaviy sahna texnologiyalarini keng joriy etish hamda teatr faoliyatini targ'ib qilish ishlarini kuchaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, qo'g'irchoq teatrida obraz yaratish murakkab, ko'p bosqichli va ijodiy jarayon bo'lib, u aktyorlik mahorati, dramaturgik asos, sahna texnikasi hamda badiiy ifoda vositalarining uzviy uyg'unligini talab etadi. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qo'g'irchoq teatrida yaratiladigan obrazlar ayniqsa bolalar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ularning estetik didi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy tasavvurlarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tahlillar davomida aniqlanishicha, bugungi kunda qo'g'irchoq teatrida bir qator dolzarb muammolar mavjud. Jumladan, maxsus tayyorlangan aktyorlar yetishmasligi, dramaturgik asarlarning kamligi, sahna texnik vositalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda tomoshabin auditoriyasining o'zgarishi ushbu sohaning rivojlanishiga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda. Ayniqsa, bolalar dramaturgiyasining yetarli darajada rivojlanmagani qo'g'irchoq teatr repertuarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy qo'g'irchoq teatrida kuzatilayotgan ijobiy o'zgarishlar ham alohida e'tiborga loyiqdir. Xususan, multimedia texnologiyalarining joriy etilishi, interaktiv spektakllarning yaratilishi, aktyorlik texnikalarining yangilanishi ushbu san'at turining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Zamonaviy sahna

talablari asosida qo‘g‘irchoq teatrida obraz yaratish jarayoni yanada boyib, yangi ifoda vositalari bilan to‘ldirilmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi: qo‘g‘irchoq teatr aktyorlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, bolalar dramaturgiyasini rivojlantirish, zamonaviy sahna texnologiyalarini keng joriy etish hamda teatr faoliyatini targ‘ib qilish ishlarini kuchaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. – Moskva: Iskustvo, 1985.
2. Chexov M.A. Aktyor texnikasi haqida. – Moskva: San‘at, 1990.
3. Meyxold V.E. Teatr nazariyasi va amaliyoti. – Moskva, 1982.
4. Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. – Toshkent: Fan, 2010.
5. Abduxalilov A. Qo‘g‘irchoq teatrida rejissyorlik xususiyatlari. – Magistrlik dissertatsiyasi, 2005.
6. Yo‘ldashev T.I. Teatr san‘ati va zamonaviy jarayonlar. – Toshkent, 2012.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san‘atni rivojlantirishga oid qarorlari.
8. Teatr pedagogikasi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar. – Toshkent, 2015.
9. Qo‘g‘irchoq teatr amaliyoti bo‘yicha metodik qo‘llanmalar. – Toshkent, 2018.
10. Zamonaviy teatr texnologiyalariga oid ilmiy maqolalar to‘plami. – 2020.
11. U.Boltaboyeva. Qahramon qiyofasini yaratishda Stanislavskiy ta‘limotining mohiyati. *Oriental Art and Culture Scientific Methodical Journal*. Volume 7. Issue 1. January 2026. 122-126 - betlar.